

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11322751>

TURKIY ADABIYOTDA ILK ZOHID OBRAZI

Omanboyeva Aziza Doniyor qizi

“Ma’mun Universiteti” NTM

o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

E-mail: omanboyevaaziza1@gmail.com

Annotatsiya: Tasavvuf ta’limotida shariat bosqichi vakili bo‘lmish zohidlar badiiy adabiyotda ham ilk yaratilgan tasavvufiy obrazlardandir. Zohid komillik siridan xabar beruvchi obrazdir. Ushbu maqolada uning tasavvufiy obrazlar orasidagi roli haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Zuhd, zohid, tasavvuf, badiiy adabiyot, mumtoz davr, badiiy obraz, komillik, tariqat.

Abstract: Ascetics, who represent the leader of Sharia in Sufism, are one of the first subjects of Sufi literature. The ascetic is an image that tells the secret of perfection. This article talks about his role among mystical images.

Key words: Zuhd, zohid, tasavvuf, fiction, classical period, artistic image, komillik, tarikat

Аннотация: Отшельники, являющиеся представителями шариатской стадии в суфизме, относятся к числу первых мистических образов, созданных в художественной литературе. Аскет – образ, передающий тайну совершенства. В данной статье говорится о его роли среди мистических образов.

Ключевые слова: Аскет, аскетизм, мистика, художественная литература, классический период, художественный образ, совершенство, порядок

Sharq mumtoz adabiyotida ma’naviy - axloqiy tendensiyaning yuqori ahamiyatga egaligi hech kimga sir emas. Chin adabiyotning maqsadi barcha davrlarda ham insonni mukammallik sari yetaklash, shaxsiyatni ma’nan yuksaltirish, komillik sifatlari ila tarbiyalash bo‘lgan. Bugun mumtoz adabiyotni o‘rganishga e’tibor har qachongidan ham ustunlik kasb etayotganiga qaramay, badiiy adabiyotdagи obrazlarning asl mohiyatini ochib berish, ular tashigan ma’naviy yukni zamonamiz o‘quvchisiga his

qildirish mushkulliklari adabiyotshunoslarning oldida turgan muhim vazifalardan biri. Shunday obrazlardan biri mumtoz adabiyotimizdagi zohid obrazidir. Zohid obrazi haqida istiqlol davri o‘zbek adabiyotshunoslida bir qator yangi va haqqoniy firk – mulohazalar ilgari surilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin, lekin bu ishlarni zohidlikning to‘liq ma’naviy qiyofasini ochib berish uchun yetarli bo‘lgan deya olmaymiz. Shu ma’noda o‘zbek mumtoz adabiyotida zohid obrazining maxsus o‘rganish, davriy nuqtayi nazardan zamona ijodkorlari zuhd va zohidlik masalalariga bo‘lgan qarashlarini tadqiq etish, mumtoz shoirlar asarlaridagi obrazlar tizimini chuqr tahlil etish, ularning ifodalanish tarzlari, tasvir imkoniyatlari, mohiyatiga singib ketgan ma’rifiy, tasavvufiy qarashlarni o‘rganishda kompleks tadqiqot olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu borada zohid shaxsiyati yoki badiiy adabiyotdagi zohid obrazini tahlil va talqin qilar ekanmiz, turkiy badiiy adabiyotda ilk zohid obrazi qachon tilga olingani haqida savol tug‘ilishi tabiiy.

Ilk zuhdiy qarashlar va zohid obrazi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (Baxtga eltuvchi bilim) asarida kelganligi adabiyot kishilari uchun ma’lum. O‘zbek mumtoz adabiyotining eng yorqin namunalaridan hisoblanmish “Qutadg‘u bilig” asari nafaqat adabiyot balki, tarix, falsafa, din, tasavvuf tarixini o‘rganishda ham nihoyatda bebaho manba hisoblaniladi. “Qutadg‘u bilig” asarining qimmatli bo‘lgan jihat shundaki, unda zohid obrazining keng tasvir bilan ifoda qilinishidadir.

Asardagi zohid obrazini – O‘zg‘urmush tamsil etadi. Tasavvuf adabiyotining ilk bosqichi zuhd davri (VII-XI asrlar) hisoblanar ekan¹, ushbu davrlarga nisbatan yaqin yaratilgan Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlari ham mavzumiz doirasidadir. “Qutadg‘u bilig” asari esa tom ma’noda tasavvufdagi zuhd maqomini, zohid obrazini mukammal yoritishda eng maq’bul manbaa vazifasini bajaradi. Asardagi to‘rt obraz Kuntug‘di, O‘gdulmish, Ozg‘urmish, Oyto‘ldi obrazlari ham asardagi o‘zgacha ramziyliklarni ifodalashga xizmat qiladi. Asar voqealariga diqqat qaratilsa, O‘zg‘urmishning zohidona hayot tarzini tanlaganligini uning qarindoshi O‘gdulmish elig (hukmdorga) bayon etadi. Va hukmdor ham o‘z navbatida uni ko‘rishga xohish bildirib, bir qancha maktublar bitadi, O‘zg‘urmishni saroyga chaqiradi. Ushbu o‘rinda zohidlik va zohidona hayot haqidagi yozuvchining qarashlari ham bayon qilinadi. Elig: “...toat-ibodatni nihoniyl qilish kerakligi, uni xalqdan yashirmoq, toat-ibodat talay bo‘lsa ham uni oz deb hisoblash haqida fikr bildiradi.” “Hujjat ul-islom” Abu Homid G‘azzoliy “Kimyoysi saodat” asarining “Uzlat” bobida bu borada tarkidunyochilikning olti zarari va olti foydasi haqida so‘zlaydi:

¹ U. Turar. Tasavvuf tarixi. –T.: “Istiqlol”, 1999. 43-b
Boltabayev H. Islom tasavvufi manbalari. Toshkent. “O‘qituvchi”. 2005
Ҳаққул И. Навоийга қайтиш (3-китоб). –T.: Тафаккур, 2016. B-342

-Dunyoni tark etish ilm olmoq va ilm o‘rgatmoqdan mahrum qiladi;
 -Xalqdan manfaat olmoq va xalqqa manfaat yetkazmoqdan chetda qoladi;
 -Yolg‘iz yashovchi kishi odamlardan yetadigan alam va kamsitishlardan, kulfatlarga sabr qilish azobidan chetda qoladi.

-Xilvatda vasvasa g‘olib bo‘lib dilga futur yetishi mumkin;

-Kasal ko‘rmoq, janozalarda ishtirok etmoq, insonlarni qutlamoq, jamoat namozlarida kishilar bilan namoz o‘qish va shu kabi bir qator savobli amallardan bebahra qolish mumkin;

-Xalqqa aralashmoq, ular haqqini bajo keltirmoq ham tavoze’ jumlasidandir - deydi G‘azzoliy.

Zohid – O‘zg‘urmish asardagi asosiy obrazlardan biri, dostonda nafs tarbiyasidagi solik ruhiyatini tamsil etuvchi shaxs. Albatta, zuhdiy hayot Alloh in’om etgan sabr, qanoat, rizo, tavakkulga asoslanadi va sekin-asta nafs tazkiyasiga yo‘l ochadi. O‘zg‘urmish qanoat va malomat timsolidir. Dostonda zohidlik mohiyati O‘zg‘urmish tilidan shunday izohlanadi:

Menga nom bergenlar, bu zohid nomi,

Toat-ibodatning menga in’omi.

Meni nafs, havasdan tiyar bu ot, boq,

Otim-chun havaslar mendan uzoqroq¹

Zohid insonni dunyoning foniyligi va boqiy hayotga tayyorgarlikdan ogoh etadi. “Qutadg‘u bilig” asarida esa zohidlikni ixtiyor etgan O‘zg‘urmush zohidning shunday savobli va Alloh buyurgan ishlardan chetda qolishidan Elig va O‘gdulmush tomonidan ko‘p bora ogohlantiriladi. Elig derki:

Ikki turli kishi – kishi ataladi,

Biri – o‘rgatuvchi, ikkinchisi – o‘rganuvchi.

O‘rgatuvchi yoki o‘rganuvchi inson

Bu zamin-u hayotda tirik bo‘lgan kishidir,

Undan tashqarisi esa yilqi kabidir.

Shu sababdan ham Kuntug‘di O‘zg‘urmushni ilmsiz ibodatdan to‘sishga harakat qiladi va yana aytadi:

Agar shu vaqtga qadar bilmagan bo‘lsang, bilim o‘rgan.

So‘ng toat-ibodatga qo‘l tekkizgin.

Muqaddas kitobimiz Qur’oni Karimda ham ilm olishga da’vat etuvchi oyatlar bir qator: “(*Ey Muhammad*) aytинг: “*Parvardigorim, ilmimni yanada ziyoda qil!*”² Yoki, “*Aytинг: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo‘lurmi ?!*”³. “*Alloh*

¹ Юсуп Хос Хожиб. Кутадгу билиг. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – Б. 418

² Toha surasining 114 - oyatida

³ Zumar surasining 9-oyatida:

sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja - martabalarga ko‘tarur.”¹ Imom G‘azzoliy ushbu oyat mazmuni yuzasidan “Ihyoyi ulumud-din” asarida Ibn Abbos (r.a)dan iqtibos keltiradi. Ibn Abbos (r.a) aytadilar: “Olimlarning darajasi ilm olmagan mo‘minlarning darajasidan yetti yuz daraja yuqoridir. Har darajaning orasi besh yuz yillik yo‘lga teng”². Ilmnинг sharafi haqida Qur’он suralaridan keyin, hadislarda ham bir qator ishoratlar mavjuddir. Diqqatga sazovar hadislardan birida: “Olimlar payg‘ambarlarning vorislaridir”, - deyiladi. Demak , ilm har bir muslim va muslima uchun farz ekan, Yusuf Hos Xojib ham asarida zohidlikning boshlanishidan oldin solikda zuhd uchun yetarli bo‘lgan ilm bo‘lishini aytib o‘tadi. Imom G‘azzoliy esa “... bilginki, inson farz ilm o‘rganmoqdan benasib bo‘lsa, go‘shanishin bo‘lmog‘i haromdir”.³ Buning boisi esa kishi komil ilm hosil qila olmas ekan ibodatda ham mukammal va g‘ururdan holi bo‘la olmaydi. Shu bois ham asarda: “...bilim bilan qilingan toat ibodatning najoti tumandir, bilimsiz toat-ibodat qilgan odam najot topmaydi. Bilimsizning toat- ibodat qilishidan ko‘ra, uxlovchi bilimlining manfaati yuqoridir,”- deya ko‘p bora uqtiriladi. Dunyoni tark qilishning ikkinchi zarurati, deya qayd etilgan “xalqqa manfaat yetkazmoq va xalqdan yaxshilik ko‘rmoqdan chetda qolish” ham eligning nazaridan chetda qolmaydi va O‘zg‘urmushga bir qator so‘zlarni so‘zlaydi:

Bu yoqqa kel, qishloq shaharda toat-ibodat qil,

Hamma ezguliklarga eshik ochilsin.

Hukmdor ham ilm-u aqlda yetuk bo‘lganlikdan zohidni el-u yurt bilan birga bo‘lishga chorlaydi, boisi elig nazdida, zohid go‘shanishinlikda qiladigan ibodati ro‘za tutmoq va namoz o‘qimoqdir, bularning barchasi esa faqat insonning o‘zigagina foyda keltirishi mumkin. Agar xalqqa yaqin kelsa, uning muammolariga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatsa, bundan ikki taraf ham foydalanishi mumkin. Shu sababdan ham: “Xalqqa foydang tegsin, munggiga yara Qarindoshlarga yordam ber, yaqinlik ula,” - deya unga tanbeh beradi. Bulardan tashqari shohning adolati butun xalqqa bo‘lsa, sen eligning yoniga kel ushbu savobli ishga bosh-qosh bo‘l, zamona hukmdoriga to‘gri yo‘l ko‘rsat, deya uni o‘z yoniga chorlaydi.

Bu yerda talay onasizlarni ko‘r, yo tul, bevalarni,

Yo ko‘zsiz yo shol yoki cho‘loqlarni (ularning holidan xabar ol)

Jamoat bilan fariza namozini qil!

Kambag‘allar haji bo‘lmish juma namozini birgalikda bajar!

Ushbu sanalganlarning barchasi toat-ibodatdir,

¹ Mujodala surasining 11-oyatida

² Фаззолий. Ихёу улумиддин. – Т.: Тошкент ислом университети. 2014.

³ Imom G‘azzoliy “Kimyoysi saodat” “Uzlat” 194-b

-deydi Kuntug‘di. Sen esa bularning barchasini qo‘yib, o‘z namozing va o‘z ro‘zang bilan mashg‘ulsan. Namoz, ro‘zang faqat o‘z manfaating uchundir, o‘z manfaatini istovchi kishi mehrsiz bo‘ladi, -deya uqtiradi:

Xoliqning sevinchini istasang

Xalqning ham sevinchini ista!

kabi bir qator tavsiyalarni beradi. Bu borada Xoja Ahmad Yassaviy hazratlari ham ushbu hikmatlarini bayon etib: G‘arib, faqir, yetimlarni qilg‘il shodmon,

Xulqlar qilib, aziz jonинг ayla qurban,

Tu’ma tobsang, jonинг bilon qilg‘il mehmon,

Haqdin eshitib, bu so‘zlarni aydim mano.

G‘arib, faqir, yetimlarni har kim so‘ror,

Rozi bo‘lur ul bandadin Parvardigor,

Ey bexabar, san bir sabab, O‘zi asror,

Haq Mustafo pandin eshitib, aydim mano.¹

Tarkidunyochilikning uchinchi zarari deya qayd etilgan yolg‘iz odam tanholikda yashaydi, unga o‘zgalarning odob-axloqidan, muomalasidan hech qanday ziyonzahmat yetmaydi, insonlar tomonidan tuhmat, alam, kamsitishlar ko‘rib ularga sabr orqali yetadigan savoblardan bebahralikdir deya qaraluvchi O‘gdulmishning O‘zg‘urmushga so‘zlagan so‘zlarida esa odamlar orasida yursang, ulardan yetadigan balolarga sabr qilsang, xususan, tildan keluvchi achchiqliklarga:

Shu kishi erdiki, kishilar orasida yurib,

Tiliga ehtiyyot bo‘lsa, to‘rdan joy oladi.

Odamlarning dag‘alliklariga:

O‘zi dag‘al so‘zga yumshoq javob qilsa,

Unga achchiq so‘zlasalar, u shirin so‘z qilsa...

Insonlardan yetadigan jafolarga sabr qilmoq, unga jafo qilsalar, u og‘iz ochmay vafo qilsa, ko‘nglidagi barcha o‘ch va ginalarni chiqarib tashlasa, yaqinlari qon-qarindoshlari undan ko‘ngil uzsa ham u baribir do‘st-u yorlariga adovat saqlamasa ana shu inson Tangrining mukofotiga loyiq bo‘ladi. Ushbu jumlalarni xulosalab aytadigan bo‘lsak:

Agar zolim senga zulm qiladigan bo‘lsa,

Sen uni kechirgin, din yo‘li ana shudir.

Yoxud Ahmad Yassaviy aytganlaridek:

Xorliq tortqil, shum nafsingni boshi qotsun,

Qiy nab tebgil, bu dunyodin yig‘lab o‘tsun,

¹ Xoja Ahmad Yassaviy. Хикматлар куллиёти. Сулаймон Бокирғоний. Хикматлар (Нашрга тайёрловчилик Т.Қораев, А.Бозоров – Т.: 2009 – бет 16

Tufroq bo‘lg‘il, xalqlar sani bosib o‘tsun,
Jonu dilda Hay zikrini ayting, do‘stlar!

Shayx G‘azzoliy aytadiki, ruhiyatni bo‘sh bo‘lgan insonga yolg‘izlik g‘olib kelib, vasvasa g‘olib bo‘lishi mumkin, shuning uchun ham piri murshid tarbiyasini olmay turib chilla o‘tirish, yolg‘izlikdagi zohidona hayotga kirishmagan ma’qul. Asarda O‘gdulmush qarindoshi O‘zg‘urmishga aytadiki, kishi ko‘p mol topsa-yu, undan ko‘nglini uza bilsa, mol-dunyo keladigan bo‘lsa unga dil bog‘lamasa, ketadigan paytida og‘rinmasa, ming tuman orzu qilib unga erishsa, erishganlaridan g‘ururlanmasa, o‘z nafsi jilovlay olsa o‘sha kishi zohiddir.

Yuqoridagi fikrlar va misollardan O‘zg‘urmushni zohidlik uchun ilmda nomukammal yoki xalq manfaatidan qochguvchi deya anglamaslik lozim. O‘zg‘urmush zuhdning barcha shartlari uchun javob bermoqqa munosib obrazdir. Agar xalqqa aralashmoq savobli bo‘lsa uning bilan birgalikda solikka yuzlanishi mumkin bo‘lgan balolarni ham sanab beradi. Yuqorida ta’kidlaganimiz “Kimyoysi saodat” asarida uzlatning oltita foydasi haqida ham yozilgan bo‘lib, ular quyidagicha:

1. Avvalg‘i foydasi - zikr va fikrni farog‘at birla qilmoqlikdurki, ibodatning ulug‘rog‘i Haq subhonahu va taoloning osmon va zamindagi ajoyib va g‘aroyib sun‘i qudratlarini fikr qilmoq, dunyo va oxiratdagi asrorlarini tanimoqdur. Bu borada O‘zg‘urmishning ham tajribalari va xulosalari bor:

Nazar solib endi dinimning noqisligini ko‘rdim,
Bu yerda men uchun afzallik ko‘rindi.
Shu sababdan endi turib bu yerga keldim,
Toki tanholikda Xudo toat ibodatini qilsam deb,
Ko‘r, bu arshdan quyi zah yerga qadar
Jumla va barcha birdek Xudoga xojatmanddir.

2. Uzlat sababidan bisyor gunohlardan xalos bo‘linur va to‘rt gunohdurki, xalqg‘a aralashsa undan xalos bo‘lolmas:

a) g‘iybat qilmoq- dinni halok qilmoqdir;

Kishilardan chetlashgan bo‘lsam agar,
Bekorga so‘zlayotganim va g‘iybat qilayotganim yo‘q

b) amri ma’ruf va nahiy munkarki, agar xalqni gunohdan man’ qilmasa, osiy va fosiq bo‘lur. Agar man qilsa, xusumat paydo bo‘lur;

Bu xalq xizmatiga butunlay eshik yopmaguncha
Yaratgan rabbga chin dildan xizmat qilib bo‘lmaydi

d) riyox va nifoq odamlarg‘a aralashgandan bo‘lur;

Xavas va nafs bo‘ynini juda qattiq sindirish kerak
So‘ng o‘zing toat-ibodatdan xalovat topsang bo‘lad

e) ba'zi odamlarga aralashmoqdurki, u birla o'tirib hamsuhbat bo'lsa, ani sifati suhbatdoshiga o'zi bilmagan holda ta'sir qilur.

Dunyo senga o'zini juda sevdirib qo'ygani uchun ham

Barcha ayblarini fazilat kabi ko'rmoqdasan.

Erkli egam bu dunyoni tunash joyi-
(ya'ni, qo'nib o'tadigan omonat joy qildi)

Tunash joyini nega o'rzu qilasan

3. Hech bir shahar fitna va xusumatdan xoli bo'lmas. Kishi go'shanishin bo'lsa fitna va xusumatdan xoli bo'lur.

4. Xalqning sharridan (yomonligidan) emin bo'lur va xalq orasida bo'lsa, g'iybat va badgumonlikdan va shubhali taomdan xoli bo'lmas.

Nazar solsang dunyo ko'lanka kabitidir Izidan borsang qochadi,
qochsang seni quvadi Yana bu dunyo moli dinga o'chlikdir

O'yla dunyo dinni yeydi bunga nazar sol

5. Beshinchi foyda ulki, odamlarning tama'sidan va ham odamlar buning ta'masidan xoli bo'lurlar

Xavas va nafs bo'ynini juda qattiq sindirish kerak
So'ng o'zing toat-ibodatdan xalovat topsang bo'ladi

6. Oltinchi foyda ulki, ahmoq va johillarni ko'rmakdan, tabiatingizga og'irlilik va malollik yetadurg'on toifalarning diyordidan xalos bo'lursizlar.

Xudo yorlaqagani bu-qulini siylasa,
Unga dunyo bermaydi, yo'lini pok qiladi.
Shu sababdan bu dunyo quti yaxshi emaski,
U Xudodan uzoqlashtiradi, u din ofatidir.

Ko'rinadiki, zuhd tariqatda barcha amallarning tamaliga o'xshaydi. Zero, nafs mujodalasida dunyoga muhabbat tufayli paydo bo'lgan barcha chirkinliklardan voz kechish zaruratini asosi zohidlik ekani ayon bo'ladi. Haq yo'liga kirgan solik o'zini Qur'oni karim va hadisi sharifga asoslangan zuhudu toat orqali tarbiyalaydi. Tasavvuf shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat nomli to'rt bosqichni bosib o'tadi. Zohidlar shariat bosqichi vakillari sanaladi. Ular necha yillarki, insoniyatga ibrat bo'lishdi. Va bu yo'l xususida, uning maqsad vazifalarini yorituvchi risolalar yaratildi. "Qutadg'u bilig" ham ana shu vazifani o'tovchi bebaho manbadir. Asardagi zohid - O'zg'urmish ham badiiy adabiyotda ilk yaratilgan tasavvufiy obrazlardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haqqul I. Navoiyga qaytish (2-kitob). –T.: “Fan”, 2011.
2. Haqqul I. Navoiyga qaytish (3-kitob). –T.: Tafakkur, 2016.
3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muxabbat. MAT. 17-tom.–T.: Fan, 1998.
4. Tasavvuf atamalari izoxli lugati «Movarounnahr» - 2015. 97-b
5. Kadir Özköse Zühd ve sūfîlerin zühde yükledikleri anlam., Ankara. B-12
6. I.Haqqul. Meros va mohiyat, –T.: “Ma’naviyat”, 2008. 3-b
7. Komilov N “Tasavvuf”.Toshkent.“Movarounnahr”-“O‘zbekiston”2009 27-b
8. Haqqul I. Tasavvuf va she’riyat. – T: Adabiyot va san’at, 1991.
9. Haqqul I. Irfon va idrok. –T.: “Ma’naviyat”, 1998
- 10.A. Yassaviy. Hikmatlar. Movarounnahr-Toshkent. 2004. 30-b
- 11.Haqqul I. Tasavvuf va she’riyat. – T: Adabiyot va san’at, 1991. 28-b
- 12.A Omanboyeva. Adabiyotda zuhd maqomi va zohidlikning o ‘rni va 2. ahamiyati haqida. Educational Research in Universal Sciences 2 (4),
13. D.Allayarov Talabalarda kechadigan ruhiy tushkunlik holatini muhim jihatlarini o‘rganishning psixologik xususiyatlar “International scientific research conference” Belarus, International scientific-online conference, 2023. – B.43-44
- 14.Cebecioğlu E. Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü. – Ankara: Rahber yayınları, 1997. 260-b
15. Hujviriy. A. Kashf-ul ma’jub li arbob-ul qulub. Risoladan parcha/ kh- davron. Diniy adabiyotlar. Tasavvuf. Khujviriy.